

**AL FARG‘ONIY ILMIY ME‘ROSINING HOZIRGI
KUNDA O‘RGANILISHI**

Jo‘rayeva Zuhra Jalol qizi ¹

¹ Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:11.02.2025

Revised: 12.02.2025

Accepted:13.02.2025

KALIT SO‘ZLAR:

“Alfraganus”
“Almagest” “Baytul-
hikmat”, „Farg‘ona
farzandi“, Nurulloxon
hoji Abdulloh o‘g‘li
„Bashar allomasi“),
Bag‘dod va
Damashqdagi
rasadxonalar,
YUNESKO, Qohira
shahri, D‘alamber,
Brokelman, X. Zuter

Ushbu maqola Abbosiylar sulolasi davrida yashab ijod qilgan, buyuk matematik va astronom Al-Farg‘oniyning ilm-fan taraqqiyotidagi hissasi, olib borilgan faoliyati hamda yozgan asarlari hozirgi kunda o‘rganilishi haqida fikr yuritilgan. Al-Farg‘oniyning astronomiyaga oid asarlari Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida hanuzgacha saqlanganligi, ularning Oliy o‘quv yurtlarida darlik sifatida qo‘llanilganligi va buyuk Yevropa olimlari tomonidan e‘tirof etilganligi haqida fikr mulohazalar olib borilganini ko‘rishimiz mumkin

KIRISH. Saxovatli keng ona tuprog‘imiz, O‘zbekiston nomini faxr va g‘urur his-tuyg‘usi bilan uzoq-uzoq avlodlarga ko‘z-ko‘z qilishga arzigulik ulug‘ siymo va allomalardan biri bu Ahmad-al Farg‘oniydir. IX-XII asrlarda yashab ijod etgan O‘rta Osiyo xalqlari va butun dunyo tabiiy-ilmiy fanlarning rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir o‘rta asrlarda yashab, O‘rta Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik, geograf sifatida asosiy o‘rinni egallaydi. Al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi ma‘lumotlar juda kam bo‘lganligiga qaramay, o‘rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo‘lib, Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVIII asr) kabi Sharq allomalari uni o‘z asarlarida salohiyatli olim sifatida eslatishadi [1, 445-b]. Al Farg‘oniy o‘zi o‘rgangan barcha ilmlar ichida, ayniqsa, astronomiya (ilmi nujum)ga katta mehr qo‘ydi. So‘ng o‘z bilimlarini oshirish, o‘qish va o‘rganish uchun o‘sha davrning ilmiy markazlaridan bo‘lgan Bag‘dodga kelib, u erda “Baytul-hikmat” (Donishmandlar uyi) da ustozlardan saboq olib, o‘zi ham ilmiy tadqiqotlar

olib boradi. U bu erdagi olimlar bilan birlikda va hamkorlikda hind, fors va yunon tillaridan arab tiliga tarjimalar qiladi.

Ahmad Fargʻoniy jahon faniga buyuk xissa qoʻshgan buyuk alloma sifatida tilga kirdi. Ahmad Fargʻoniyning yoshlik davri oʻz yurtida oʻtadi. U Fargʻonadan Xoʻjand orqali Samarqandga soʻng, Buxoro orqali Marvga al-Maʼmun ibn Horun ar-Rashid huzuriga boradi hamda, uning oʻgʻli al-Maʼmun davrida Bagʻdodda ilm-fanning yuqori choʻqqilarga koʻtarildi, [2, 16-b] arab tili davlat va ilm-fan tiliga aylandi. Bagʻdod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga shaxsan oʻzi ishtirok etdi. Tarix, adabiyot, tilshunoslik, islom qonunshunosligi, tafsir, hadisshunoslik va boshqa ilmiy ishlar keng koʻlamda taraqqiy etdi. Kitobu-hattotlik sanoati rivojlanib, minglab qoʻlyozmalar koʻchirildi, kutubxonalar koʻpaydi. Horun ar-Rashid asos solgan “Maʼmun akademiyasi” “Bayt ul-hikma” da toʻplangan buyuk olimlar aniq fanlar sohasida olamshumul ilmiy ishlar olib bordilar. Halifa al-Maʼmun “Bayt ul hikma uyi” [3] faoliyati uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berdi va uni moddiy jihatdan toʻla taʼminlab berdi.

Al-Maʼmun davrida ikki rasadxona bino qilindi. Ularning biri Bogʻdodning Shamsiya degan joyida, ikkinchisi esa Damashqdagi Nasikan tepaligida edi. Rasadxonalar qurilishida Ahmad Fargʻoniy boshchiligidagi Abbos ibn Said al-Javxariy, Said ibn Xomid, Yahyo ibn Abu Mansur kabi olimlar ishtiro etgan. Al-Maʼmun iltimosiga koʻra al-Fargʻoniy rahbarligidagi astronomlardan uch aka-uka Muhammad, Ahmad va Hasan, Muhammad ibn Muso ibn Shokir Xorazmiylar va bir nechta olimdan iborat maxsus hayʼat tuzildi. Ular oʻlchash ishlarini oʻz davriga nisbatan muvaffaqiyatli hal etdilar. Bagʻdodning Raqqoq nomi bilan ataluvchi mavzesida qurilgan rasadxona qoshida tashkil etilgan falakiyotshunoslik maktabiga ham rahbarlik qildi. [4, 225-b]. Ahmad Fargʻoniy Bagʻdodda “Baytul-hikma” ning etakchi olimlaridan biri sifatida tanilib, shu erda yashab, ijod etadi. Hozirgi kunda Ahmad al-Fargʻoniyning 8 ta asari bizgacha yetib kelgan boʻlib, ularning hammasi astronomiyaga oiddir. Ular quyidagilar:

1. Astronomiya asoslari haqida kitob (arabcha: “Kitob fi usul imi annujum”-yaʼni 19 “Astronomiya ilmining usullari” haqidagi kitob). 2. “Usturlob bilan amal qilish haqida kitob” (birgina qoʻlyozma holda Rampur (Hindiston)da saqlanmoqda). 3. “Oyning er ostida va ustida boʻlish vaqtlarini aniqlash haqida risola”. 4. “Etti iqlimni hisoblash haqida” (qoʻlyozmalari Gotada va Qohirada saqlanmoqda). 5. “Quyosh soatini yasash haqida kitob” (qoʻlyozmalari Halab va Qohirada saqlanmoqda). 6. “Al-Horazmiy “Zij” ining nazariy qarashlarini asoslash” asari (qoʻlyozmasi topilmagan). 7. “Al-Fargʻoniy jadvallari” (qoʻlyozmasi Patna (Hindiston)da saqlanadi). 8. “Samoviy harakatlar va umumiy ilminujum kitobi” (arabcha: “Kitob al-harakat as-samoviya va javomiʼ ilmi annujum”) [5, 18-19-b]. . Ahmad Fargʻoniy asarlari hozirga qadar sharq va gʻarb mamlakatlari tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda. Uning bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan va munosib hissa qoʻshdi. Bu asarlarning deyarli barchasi saqlanib

qolgan hamda hozirgi kunda ularning ko'pchiligi oliy ta'limlarda fan darslik sifatida foydalanilmoqda. Allomaning bunday faoliyat olib borishi hamda astranomiya oid ko'plab asarlarning muallifi bo'lganligi tufayli ham XII asrdayoq Yevropada buyuk mutafakkirni lotinchada "Alfraganus" nomi bilan atay boshladilar.

Al-Farg'oniyni buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'zining "Yulduzlar ilmi usuli kitobi" asarida I-asrda yashab o'tgan mashhur Klavdiy Ptolemeyning falakiyot sohasida asosiy qomus hisoblangan "Almagast" asaridagi talay xatolarni aniqlab, to'g'rilab berdi. Ushbu asar yana yetti nomda shuhrat qozongan. "Osmon jismlari harakati va yulduzlar ilmi to'plami", "O'ttiz fasldan iborat falakiyot kitobi", "Almagest" muqaddimasi uchun o'ttizta fasl, "Osmon sferalari sabablari", "Osmon sferalarining tuzilishi", "Almagest" ("Almajistiy"), "Astronomiya fani" nomlari bilan atalib, hozirda uning qo'lyozmalari Bag'dod (2959 oltinchi nomda), Dublin (Bitti, 4114), Qoxira (Mikat, 944, 194, 310, 311), Leyden (8418/5), Sankt-Peterburg (3059/3), Moskva (154/2), Oksford (1, 879/1 - ikkinchi nomda), Parij (2504/3 - uchinchi va to'rtinchi nomda), Prinston (Garr, 967 - yettinchi nomda), Istanbul (Aya Sofiya, 2843/2 - to'rtinchi nomda), Tunis (Millat kutubxonasi, 02103/1 - ikkinchi nomda), Fes (Zaviy, 56 - sakkizinchi nomda) kabi bir qator davlat va shahar kutubxonalarida saqlanmoqda [6].

Ahmad al-Farg'oniyni asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-y. da tosh bosma usulida nashr etildi. 1669-y. mashhur golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius Ahmad al-Farg'oniyni asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so'ng uning shuhrati yanada ortdi. Yevropa Uyg'onish davrining mashhur olimi Regiomontanda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyaga doir ma'ruzalarini Ahmad al-Farg'oniyni asarlari asosida o'qigan. Uning nomi Dante va Shiller tomonidan tilga olinadi. Yevropa olimlaridan D'alamber, Brokelman, X. Zuter, I. Yu. Krachkovskiy, P. Yushkevich va B. Rozenfeld Ahmad al-Farg'oniyni ijodiga va qoldirgan ilmiy merosiga yuqori baho berganlar.

Umuman Ahmad al-Farg'oniyni "Astronomiya asoslari haqidagi kitob" asari o'rta asr musulmon Sharqi mamlakatlaridagi, so'ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Qadimgi yunon ilmi, jumladan, astronomik ilmlar ham birinchi bor arabchadan tarjima qilingan risolalar orqali ma'lum bo'ldi. Al-Farg'oniyni bu asari astronomiyadan eng sodda darslik bo'lib, unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar keltirilmagan. Bu esa astronomiyadan boshlang'ich ma'lumotlarni o'zlashtirishni ancha osonlashtirgan. Balki buyuk Regiomontan asarining shu xususiyatini anglab, o'zining universitetlardagi ma'ruzalari uchun qo'llanma sifatida Al-Farg'oniyni mana shu asarini tanlagandir. Shundan ko'rinadiki Al Farg'oniyni o'z zamonasining zamondoshlari singari haqiqiy dahosi va yer yuzining shamchirog'i bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

=====

Ahmad al-Fargʻoniyning boy ilmiy merosini chuqur oʻrganish Oʻzbekistonda mustaqillikdan keyin boshlandi. 1998-yil Al-Fargʻoniyning 1200-yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Fargʻona shahrida Al-Fargʻoniy nomi bilan ataladigan istirohat bogʻi va qadimiy Quva shahrida Al-Fargʻoniy haykali oʻrnatildi. YUNESKO ning 1998-yildagi tadbirlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Ahmad al-Fargʻoniy tavalludining 1200-yilligini nishonlash toʻgʻrisida“gi qarori (1997-yil 27-noyabr)ga koʻra alloma hayoti va ijodiga bagʻishlangan ilmiy anjumanlar, badiiy koʻrgazmalar oʻtkazildi, yangi kitoblar nashr etildi, spektakllar (dramaturg Hayitmat Rasulning „Piri koinot“, Yoʻldosh Sulaymonning „Fargʻona farzandi“, Nurulloxon hoji Abdulloh oʻgʻli „Bashar allomasi“) [7]. sahnalashtirildi, filmlar suratga olindi. Fargʻoniy ilmiy meroslarini oʻrganish shuni koʻrsatdiki, bu olim Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlarida tabiiy fanlar, ayniqsa matematika, astronomiya va geografiya rivojiga gʻoyat muhim va benazir hissa qoʻshdi. Shu bilan bir qatorda ushbu olimning ilmiy meroslariga hurmat ehtirom koʻrsatib, yurtimizda balkim, Qohira shahrida ham ulugʻ bobomiz sharafiga 2007-yilda Misr hukumati tomonidan haykal oʻrnatildi. Ahmad al-Fargʻoniy astronomiya fanining otasi sifatida tarix zar varqalariga oʻz nomini muhrlagan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, Ahmad Fargʻoniy jahon faniga hissa qoʻshgan buyuk alloma sifatida tilga kirdi. Uning faoliyati Yevropa olimlari Dʻalamber, Brokelman, X. Zuter, I. Yu. Krachkovskiy, P. Yushkevich va B. Rozenfeld Ahmad al-Fargʻoniyning ijodiga va qoldirgan ilmiy merosiga yuqori baho berganlar. Shundan koʻrinadiki, Al-Fargʻoniy oʻz zamonasining zamondoshlari singari haqiqiy dahosi va yer yuzining shamchirogʻi boʻlgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sagdullayev A.S.S 16 Oʻzbekiston tarixi, I kitob [Matn] / A.S. Sagdullayev. - Toshkent: «Donishmand ziyosi» MCHJ, 2021. - 624 b
2. Ahmad Fargʻoniy. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2022. B. 2.
3. Movaraunnaxr va Xurosonda moddiy va maʼnaviy taraqqiyotning yangi bosqichga koʻtarilishi" <http://xorazmiy.uz>
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1 / Masʼul muharrir: A.Sagdullayev; Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. — T.: «Sharq», 2010. — 512 b.
5. Namozov, Bobir Sharq allomalarining ilmiy-maʼnaviy merosi [Matn] : oʻquv qoʻllanma / B.Namozov .-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-? b
6. <https://corp.uzairways.com/uz/ahmad-al-fargoniy-797-865>
Namangan davlat universiteti <https://doi.org/10.5281/zenodo.8031656>